

ABDULLA AVLONIY- MA'RIFAT PESHVOSI

Sevara Yoqubova,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Nilufar Ibragimova,

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, jadidchilik faoliyati bilan bog'liq ishlar olib borgan bobolarimiz merosini o'rganishga bo'lgan talab kuchli. Shu bois ushbu maqolamiz bosh jadidchilarimizdan biri, shoir, dramaturg, bir qancha asarlar muallifi va jurnalist, ilk teatr asarlari muallifi - Abdulla Avloniyning xalqni ma'rifatli qilish maqsadida bugungi kun tili bilan aytganda tizimga kiritgan investitsiyalari va jadidchilik yo'lidagi harakatlari, faoliyatlari, she'rlari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: she'r, yozuvchi, fors tili, jadidchilik, xalq, ma'rifat.

Annotation: There is a strong demand to study the heritage of our grandfathers, who have not lost their importance even today, and who carried out work related to the work of modernism. That's why this article is about one of our main jadidists, poet, playwright, author of several works and journalist, author of the first theater works - Abdulla Avloni's investments in the system in order to enlighten the people, as well as his actions, activities, The analysis is presented.

Key words: poetry, writer, Persian language, Jadidism, people, enlightenment.

Аннотация: Существует устойчивая потребность в изучении наследия наших дедов, не потерявших своего значения и в наши дни и проводивших работу, связанную с творчеством модернизма. Поэтому эта статья об одном из наших главных джадидистов, поэте, драматурге, авторе нескольких произведений и журналисте, авторе первых театральных произведений - Абдулле Авлони, вложениях в систему с целью просвещения народа, а также его действиях, деятельности. , Представлен анализ.

Ключевые слова: поэзия, писатель, персидский язык, джадидизм, народ, просвещение.

Shoir, yozuvchi, bir so'z bilan aytganda jamoat arbobi hisoblangan Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrida, Mergancha¹ mahallasida to'quvchi oilasida dunyoga

¹ Mergancha mahallasi hozirgi Navoiy ko'chasi televideniye atrofida bo'lgan.

kelganini bilasiz. “Uning bobosi Mirne’matboy asli qo‘qonlik o‘qchi-yoychilardan bo‘lgan. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik bilan shug‘ullangan... “Onamning oti Fotimadir²”, deb yozadi adib o‘z tarjimayi holida.”³

Adib boshlang‘ich savodni chiqargach, mahallalardagi madrasalarda tahsil oldi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi bilan o‘qishini biroz muddatga kechiktiradi. “1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim”⁴, -deb aytadi Avloniy. Avloniy ishlab yurgan kezlarda adabiyotga havas uyg‘onib, barchamiz havas va hurmat qiladigan Navoiy bobomiz va uning g‘oyibona shogirdi (she’r yozish uslubi o‘xshash) bo‘lgan Fuziliyni ishtiyoq bilan o‘qishga tutinib, ulardan juda ko‘plarini yod oladi. Fors tilini o‘rganish davomida o‘zi aytganidek, she’r yozishga moyilligi ortadi va she’r yoza boshlaydi...

Shunday qilib buyuk yozuvchining ijodiy faoliyati she’rlar bilan boshlanadi. Adibning xalqni ma’rifatga undaydigan harakatlari, Yusuf Tohiriy⁵ tili bilan aytganda “yangi tipdagi maktab” ochish bilan boshlandi. Bu maktabga qiziqish kundan kunga ortib, bu qiziqishlarga sabab, maktabda jug‘rofiya, hisob, tabiatni o‘rgatadigan fanlar borligi edi.

Ikkinchi harakat esa Ismoil Obidiyning “Taraqqiy” gazetasidan so‘ng Avloniyning bir qancha gazetaning nashriyotga chiqishiga yordam berishi va “Shuhrat” gazetasiga asos solishi edi. Ammo gazetaning 10 sonidayoq tezda yopilishiga sabablar topildi... Ushbu gazeta ilk matbuot namunasi bo‘lishi bilan ham anchagina ahamiyatga ega edi, deyiladi kitoblarda.

Abdulla Avloniy bilan bir qatorda taraqqiyparvarlar birlikda “Turon” jamiyatini yaratdilar. “Ularning mutaxassislari quyidagilar edi:

1. Ubaydulla Asadullayevich Xo‘jayev (Mergancha)
2. Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Observatorskaya)
3. Munavvarqori Abdurashidxonov (Shayxontohur)
4. Komilbek Norbekov (Sag‘bon)
5. Mulla Abdulla Avlonov (Saptornaya)
6. Muhammadjon Podshoxo‘jayev (Zanjirlik)
7. Kattaxo‘ja Boboxo‘jayev (Qor yog‘di)
8. Bashirullaxon Asatillaxo‘jayev (Mergancha)
9. Nizomiddin Asomiddinxo‘jayev (Orqa ko‘cha)

² Milliy uyg‘onish. T., “Universitet”. 1993. 108-bet

³ Begali Qosimov, Olim To‘laboyev . Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent “Ma’naviyat”2009

⁴ A.Avloniy. Toshkent tongi. T., 1979, 373-bet.

⁵ Toshkent Davlat universitetida uzoq yillar dars bergan pedagog

10. Karimbek Norbekov.

Jamiyatning 73moddalik ushbu ruscha nizomida uning maqsad va vazifalari quyidagicha belgilangan :

- a) Aholi o‘rtasida sahna ishlariga, ezgulikka muhabbat uyg‘otish, jiddiy munosabat o‘stirish;
- b) Xalq uchun spektakllar qo‘yib berish va ular orqali xalqqa sog‘lom hordiq bag‘ishlash;
- c) Manaviy va moddiy ahvolini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan Turkiston o‘lkasi doirasidagi musulmon e‘tiqodiga mansub kishilarga yordam berish.”⁶...

Shunday qilib, Avloniy bobomiz va jadidlarimiz xalqimizni har taraflama yuksaltirish, chang bosgan yorug‘ yo‘llarni ochib, o‘zbeklarni u tarafga yurishga boshlash, ularning ma‘naviy dunyosini boyitish yo‘lida o‘zlarining turli chora-tadbirlarini belgilab olishgan edi. Jdid harakati davri biz ucgun sermahsul va xalq ko‘zi ochiladigan davr bo‘ldi. Yangiliklar hech qachon ilk marotaba duch kelinganida yaxshi qabul qilinmaydi, deb aytishganlaridek, dasxtlab jadidlar ham yaxshi qabul qilinmadi. Xalq ongida jadidlar ajnabiylar qatori tasavvur qilindi . Ammo jadidlarimiz orqaga chekinmagan holda bu qarashni o‘zgartira oldi. Ular ilk teatrni namoyish etganlarida xalqqa qanday ta’sir qilganini , Behbudiy “Teatr- bu ibratxona” deb yozgani bejiz emasligini tasavvur qilavering. O‘qishni, yozishni bilishga intilish kundan kunga ortgani, xalq o‘z imkoniyatlari baholay ola boshlagani esa ularning harakatlari natijasi edi. Darsliklar yaratish ham talabchan toliblar ko‘pligi uchun yanada ko‘proq yaratila boshladi... Xulosa qilib aytganda, qo‘llaridan kelgan barcha imkoniyatlarni xalqqa manfaatli bo‘lishi istagan jadidlar o‘z maqsadlariga ma‘lum ma’noda yetisha oldilar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

A. Boboxonov va M. Mahmudov “Abdulla Avloniy. Pedagogik faoliyati” kitobida bu adibimiz haqida chuqur ma‘lumotlar berishgan. Teatrshunos M. Rahmonov Avloniyning “Ikki sevgi” deya nomlangan asarini o‘rganish davomida “Ikki muhabbat” deya qayta nomlagan. Begali Qosimov va Olim To‘laboyev “Abdulla Avloniy.Tanlangan asarlar”ini yaratishgan. Mashhur yozuvchimiz Ozod Sharafiddinov Avloniy bobomizning asarlarini nashr ettirishda katta jonbozlik ko‘rsatgan, “Turkiy Guliston yoxud axloq “asarining izohli lug‘atini O. To‘laboyev tuzgan va Z.G‘ulomova u ustida muharrirlik ishlarini olib borgan. Ulug‘bek Dolimov “Abdulla Avloniy – milliy uyg‘onish davri o‘zbek pedagogikasining asoschisi “ nomli

⁶ Begali Qosimov, Olim To‘laboyev. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar . Toshkent “Ma‘naviyat” 2009

asar yaratgan. Bu o‘rganishlar bekor ketmagani holda biz bu shaxs haqida ko‘plab ma‘lumotlarga egamiz.

Teatrshunos M. RAhmonov Avloniyning teatrchilik faoliyati haqida fikr yuritar ekan shunday deydi:”Avloniy truppa uchun “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Ikki muhabbat”, “Portug‘oliya inqilobi”kabi dramalar yozdi, “Qotili Krima“, “Uy tarbiyasining bir shakli”, “Xiyonatkor oilasi”, “Badbaxt kelin”, “Jaholat”, “O‘liklar“ kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarbayjoncha tildan tarjima qiladi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, Abdulla avloniy tilshunoslik ishlariga ham anchagina hissa qo‘shgan.

Avloniyning ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘rni katta. U tarjimashunoslik ishlarida ham katta muvaffaqiyatlar qozongan. O‘qituvchilik ishlari bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib borib, o‘zbek maktablarining 7- sinflari uchun “Adabiyot xrestomatiyasi”ni tuzdi. 19- asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I. A. Krilov va L. N. Tolstoyning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan I. A. Krilovning 1221 ta masali, “Maymun ila ko‘zoynak”, “G‘ayri jinsiy ittifoq”, “It ila yo‘lovchi”, “Qarg‘a ila Zag‘izg‘on”, “Tulki ila Qarg‘a“ kabi asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Maktab gulistoni” kitobida bosilib chiqqan.⁷

Avloniyning she‘rlari tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, ularning barchasi xulq va odob haqida, maktab, maorif, madaniyat, ilm, tarbiya kabi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan eng dolzarb mavzularga bag‘ishlangan. “Ikkinchi muallim” kitobining birinchi she‘ri hisoblangan “maktab” she‘riga e‘tiboringizni qaratamiz:

Maktab uyi – dorilomon,
Maktab hatoti jovidon.
Maktab safoyi qalbi jon,
G‘ayrat qilib o‘qing ,o‘g‘lon!
Maktab erur doruladab,
Maktab erur ehsoni Rab.
Maktab erur gulzori ajab,
G‘ayrat qilib o‘qing , o‘g‘lon!..

Asarda har bir she‘rdan keyin uning mazmuniga mos bittadan hikoyat keltirilgan. Bu xuddiki, fikr isbotiga o‘xshab ketadi va ba‘zi hikoyatlar oxirida ham “hissa” nomi ostida umumiy xulosalar keltirilgan. So‘ngra bir mavzu ostidagi hikoyat va she‘rlar bir joyga to‘plangan. Masalan , “Yolg‘on do‘st”, “Chin do‘st”, “Xurus ila bo‘ri” hikoyatlari bir joyda keltirilgan.

⁷ “Abdulla Avloniyning hayot faoliyati va ijodiy merosi “ maqola . “Iqro”jurnali. 2023.

Avloniyning tarjima qilgan masallari ham o‘zbek tilida keltirgan hikoyatlari mazmuniga nihoyatda o‘xshash, ya’ni o‘zbekcha mentalitetni tarjima asarlariga ham singdirib yuborgan. Ularni o‘qiyotganingizda hech qanday g‘ayrilik sezmaydiz. Masalan, “Yolg‘on do‘st” hikoyatidan shunday xulosa chiqadi. Safarga chiqqan ikki do‘stdan biri qiyin ahvolda qolgan do‘stiga yordam berishni ham unitib, yolg‘iz o‘z jonini qutqarmoq payida bo‘ldi. Do‘sti esa yo‘lbarsdan qayerga qochishni bilmasdan o‘zini o‘lganga solib, yerga yotib oldi. Yo‘lbars uni hidlab, o‘lgan gumon qilib, yemasdan o‘tib ketdi. Yashiringan joyidan chiqqan do‘st do‘stidan yo‘lbars unga nima deganini so‘ragach, “Sholig‘ingda o‘rtog‘ bo‘lub, g‘am vaqtida tashlab qochadurg‘on nomard kishilar ila yo‘ldosh bo‘lma,”- deb so‘zlab ketdi”deb javob beribdi.

Krilovning “G‘ayri jins ittifoqi” hikoyatida ham birlikda ish tutilmaganligi, balki tanlovning xato bo‘lganligi, har bir obrazning o‘z bilganicha yo‘l tutishi ortidan uchalasining ham maqsadga yeta olmaganlarti haqida gap boradi. Bosh sabab esa bir so‘z bilan ifodalaganda “bir yoqadan bosh chiqarmaganliklarida edi...”.

Abdulla Avloniy bobomiz asarlari va faoliyatlarini haqidagi qisqacha ishimizning natijasi o‘laroq, biz ularning hayot faoliyatlarini, tarjimalarini, she’rlari haqidagi umumiy xulosalarni oldik va kutgan natijamizga qisman bo‘lsa-da erisha oldik deya olamiz. Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, jadidlarimiz xalqimiz uchun yangi bir dunyoni ochib berdi, yangilik tomon qadam tashlashlari uchun imkon yaratdi, desak mubolag‘a bolmaydi. Shuning uchun ham jadidlarimiz faoliyatini qancha o‘rgansak shuncha kam va biz ham yaratuvchanlikni, xalqimiz uchun kuyinuvchanlikni, mehnatkashlikni o‘zimizda shakllantira olsakgina, oynada o‘zimizni ularning avlodi sifatida ko‘ra olamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begali Qosimov, Olim To‘laboyev. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Toshkent “Ma’naviyat”2009
2. A.Avloniy. Toshkent tongi. T., 1979, 373-bet.
3. Milliy uyg‘onish. T., “Universitet”. 1993. 108-bet
4. Burxanova, F. (2024). JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 68-78.
5. Burxanova, Feruza. "NAZAR ESHONQULNING ILM-MA'RIFAT, KITOBXONLIKKA DOIR QARASHLARI." In *Konferensiyalar/ Conferences*, vol. 1, no. 12, pp. 214-219. 2024.